

O‘ZBEKISTON DAVLAT JAHON TILLARI UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/2026.31.01.Ped.45.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH

O‘ZBEKISTON DAVLAT JAHON TILLARI UNIVERSITETI

RADJABOVA MUXTASAR DAVRANBEKOVNA

ARAB TILIDA TALABALARNING YOZUV MALAKASINI
INTEGRATIV YONDASHUV ASOSIDA
SHAKLLANTIRISH

13.00.02 – Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (arab tili)

Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI

Toshkent – 2026

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)

Contents of dissertation abstract of Doctor of Philosophy (PhD)

Radjabova Muxtasar Davranbekovna

Arab tilida talabalarning yozuv malakasini integrativ yondashuv asosida shakllantirish..... 3

Раджабова Мухтасар Давранбековна

Формирование навыков письма у студентов на арабском языке на основе интегративного подхода..... 27

Radjabova Mukhtasar Davranbekovna

Forming Students' Writing Skills in the Arabic Language Based on an Integrative Approach..... 55

E'lon qilingan ishlar ro'yxati

Список опубликованных работ

List of published works..... 60

O‘ZBEKISTON DAVLAT JAHON TILLARI UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/2026.31.01.Ped.45.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH

O‘ZBEKISTON DAVLAT JAHON TILLARI UNIVERSITETI

RADJABOVA MUXTASAR DAVRANBEKOVNA

ARAB TILIDA TALABALARNING YOZUV MALAKASINI
INTEGRATIV YONDASHUV ASOSIDA
SHAKLLANTIRISH

13.00.02 – Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (arab tili)

Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI

Toshkent – 2026

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi Fanlar akademiyasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.2.PhD/Ped7509 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya O'zbekiston davlat jahon tillari universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus va ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.uzswlu.uz) va "ZiyoNet" Axborot ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Qodirova Kamola Solihovna

pedagogika fanlari nomzodi, dotsent

Rasmiy opponentlar:

Xoshimova Dildorxon Urinbayevna

pedagogika fanlari doktori, professor

Kazakbayev Akbar Akmaljanovich

filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Yetakchi tashkilot:

Andijon davlat chet tillari instituti

Dissertatsiya himoyasi O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti huzuridagi DSc.03/2026.31.01.Ped.45.02 raqamli Ilmiy kengashning 2026-yil "____" _____ soat _____ dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 100138, Toshkent sh., Kichik halqa yo'li ko'chasi, G-9A mavzesi, 21-uy. Tel.: (71) 230-12-91; faks: (71) 230-12-92; e-mail: uzswlu_info@mail.ru)

Dissertatsiya bilan O'zbekiston davlati jahon tillari universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (____ raqam bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100138, Toshkent sh., Kichik halqa yo'li ko'chasi, G-9A mavzesi, 21-uy. Tel.: (71) 230-12-91; faks: (71) 230-12-92.

Dissertatsiya avtoreferati 2026-yil "____" _____ kuni tarqatildi.

(2026-yil "____" _____ dagi _____ raqamli reyestr bayonnomasi)

I.M. Tuxtasinov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, ped.f.d., professor

F.G. Zakirova

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy kotibi, ped.f.f.d., dotsent

A.B. Raxmonov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, ped.f.d., professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda chet tillarini o'qitishning bugungi asosiy konsepsiyasi nutq faoliyati turlarini alohida emas, balki o'zaro integratsiyalashgan ta'lim kontekstida tizimli tashkillashtira olishdek murakkab vazifani yuzaga chiqarmoqda, xususan, ayni jabhada chet tilidagi nutq faoliyati turlarining talab darajasida o'zlashtirilishida integrativ yondashuv har tomonlama dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Qolaversa, yozuv malakasi oliy ta'lim tizimining chet tillarini o'qitish jarayonida muhim ahamiyat kasb etadi, shu boisdan ham, talabalarning ayni malaka doirasida bilim, ko'nikma va malakalarini mustahkamlashda tinglash, o'qish va gapirish malakalarining o'zaro integratsiyasidan professor-o'qituvchilarining samarali tarzda foydalana olishlariga bo'lgan talab oshib bormoqda. Vaholanki, mazkur yondashuv professor-o'qituvchilar uchun yozuv malakasini shakllantirish konteksti xususiyatlarini chuqurroq idrok etish, o'quv materiallaridan maqsadli foydalanish, shuningdek, auditoriyada turli darajadagi talabalar bilan hamkorlikda faoliyat olib borishda strategik ahamiyat kasb etmoqda.

Dunyo hamjamiyatida nufuzli oliy ta'lim muassasalari qatoriga kiritilgan Rossiya Federatsiyasidagi Tver davlat universiteti, Xalqaro bozor instituti, Samara davlat universiteti, Efiopiyadagi Vollega universiteti qoshidagi Tilshunoslik va jurnalistika instituti, Saudiya Arabistonidagi Qirol Abdulaziz universiteti, Indoneziyadagi Indoneziya ta'lim universiteti kabi oliy ta'lim muassasalari hamda ilmiy tadqiqot markazlarida yozuv malakasini shakllantirishda integrativ yondashuv tatbiqiga doir salmoqli izlanishlar olib borilmoqda. Xususan, integrativ yondashuv yozuv malakasini shakllantirishda tinglash, o'qish va gapirish malakalaridan integratsiyalashgan tarzda foydalanishni ilgari surib, amalda o'qituvchi, talaba, ta'lim muhiti va o'rganilayotgan asosiy chet tilining o'zaro mushtaraklikdagi faoliyatini mustahkamlash jihatlariga alohida e'tibor qaratish zaruratini oshirmoqda.

Mamlakatimizda oliy ta'limning chet tillari, jumladan, arab tilida yozuv malakasining talab darajasida o'zlashtirilishida zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va pedagogik ta'lim texnologiyalaridan muntazam hamda samarali foydalanish amaliyoti jadallik bilan olib borilmoqda. Zotan, oliy ta'limning "o'quv jarayonida kompetensiyalarni kuchaytirishga qaratilgan metodika va texnologiyalarni joriy etish"¹ kabi strategik chora-tadbirlar amalda talabalarning kreativ-tanqidiy tafakkurini, mustaqil kognitiv faoliyatini hamda tizimli tahlil olib borish salohiyatini sezilarli darajada rivojlantirishning dolzarb ekanligini yuzaga chiqarmoqda.

O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentyabrdagi O'RQ-637-son "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-son "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida", 2020-yil 5-oktabrdagi PF-6079-son "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2022-yil 28-yanvardagi PF-

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-son "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Farmoni. <http://lex.uz/docs/-4545884>.

60-son “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmonlari, 2018-yil 5-iyundagi PQ-3775-son “Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta’minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”, 2021-yil 19-maydagi PQ-5117-son “O‘zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o‘rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorlari, Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 19-maydagi VMQ-312-son “Xorijiy tillarni o‘rganishni ommalashtirishni samarali tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2022-yil 19-yanvardagi VMQ-34-son “Xorijiy tillarni o‘rganishni takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni bajarishda ushbu dissertatsiya muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Dissertatsiya respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini takomillashtirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Mamlakatimizda xorijiy tillarni o‘qitish masalalari T.Q.Sattorov, M.Djusupov, D.U.Xoshimova, J.J.Jalolov, G.H.Boqiyeva, L.T.Axmedova, D.Djumanova, K.Sh.Muradkasimova, A.B.Raxmonov² kabi yetuk mutaxassis olimlar ishlarida yoritilgan. Jumladan, arab tilini o‘qitish metodikasi bo‘yicha E.Talabov, N.Ibrohimov, M.Yusupov, B.Z.Xalidov, K.S.Qodirova, M.Hasanov, A.B.Abdullayev, H.E.Hammam³ kabi olimlar ilmiy tadqiqot ishlarini olib borgan.

Shu bilan birga, respublikamiz miqyosida chet tilida yozuv va yozma nutqni

² Сатторов Т.Қ. Мутахассислик бўйича амалий машғулотларда бўлажак чет тил муаллимининг касбий-услубий малакаларини шакллантириш (инглиз тили материалларида): Пед. фан. док. ... дисс. автореф. – Тошкент, 2000. – 32 б.; Джусупов М. Социолингвистические и лингводидактические проблемы языка как средства общения и предмета изучения. Русистика в СНГ. – 2002. – С. 64-74.; Хошимова Д.У. Лингводидактические основы изучения лакун в контексте современного функционирования русского языка и межъязыковых взаимодействий: Дисс. ... док. пед. наук. – Ташкент, 2007. – 209 с.; Jalolov J.J. Chet til o‘qitish metodikasi. – Toshkent: “O‘qituvchi” nashriyoti. – 2012. – 294 b.; Бакиева Г.Х. Узбекский язык для стран СНГ. – Москва: МГЛУ, 2012. – 120 с.; Ахмедова Л.Т. Теория и практика обучения профессиональной русской речи студентов-филологов. – Ташкент: Издательство «Фан ва технология», 2013. – 200 с.; Джуманова Д.Р. Фонологическая модель слова в условиях языкового контактирования: Дисс. док. фил. наук. – Ташкент, 2016. – 266 с.; Мурадкасимова К.Ш. Инглиз тилини ўқитишда талабаларнинг кўникма ва малакаларини баҳолаш хусусиятлари: Пед. фан. фалс. док. ... дисс. автореф. – Тошкент, 2019. – 79 б.; Рахмонов А.Б. Формирование профессиональной компетенции будущих учителей русского языка в самообразовательной деятельности: Автореф. дисс. ... док. пед. наук. – Ташкент, 2022. – 78 с.

³ Талабов Э. Араб тили дарслиги. – Тошкент: «Ўзбекистон», 1992. – 406 б.; Иброхимов Н., Юсупов М. Араб тили грамматикаси. – Тошкент: «Ўзбекистон миллий энциклопедияси» Давлат илмий нашриёти, 1997. – I жилд. – 454 с.; Халидов Б.З. Араб тили дарслиги. – Тошкент: «Фан» нашриёти, 2007. – 344 б.; Кодирова К.С. Преодоление фонетической интерференции при обучении арабскому языку в узбекской аудитории (на материале консонантизма): Дисс. ... док. пед. наук. – Ташкент, 2008. – 156 с.; Ҳасанов М. Араб тили. – Тошкент: «Global Books» нашриёти, 2019. – 360 б.; Абдуллаев А.Б. Актуальные проблемы обучения арабскому языку. Молодой ученый.– № 42(280), 2019. – С. 252-254.; Hammam H.E. O‘zbekistondagi filologik oliy ta’lim muassasalarida arab tilini o‘qitish metodikasi: Ped. fan. fals. dok. ... diss. avtoref. -Toshkent, 2025. – 24 b.

o'qitish masalalariga bag'ishlangan tadqiqotlar L.R.Axmetova, F.Sh.Alimov, N.J.Begibayeva, Z.A.Pulatova, X.A.Ahmadjonov⁴ tomonidan olib borilgan, chet tillarini o'qitish amaliyotida ko'nikmalar integratsiyasiga asoslangan yondashuv muammosi X.A.Yulbarsova, M.X.Gulyamova, M.A.Mamedova, K.Jonuzoqova⁵ kabi olimlarning tadqiqotlarida ilmiy jihatdan izohlangan.

Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi (MDH) va xorijiy tadqiqotchi olimlar tomonidan yozuv malakasining ahamiyati va uni o'qitish masalalari L.V.Kaplich, I.J.Ibragimov, O.V.Kudryashova, L.K.Mazunova, M.Y.Kreyer, N.K.Lapshova⁶, arab tilida yozuv malakasini shakllantirish E.M.Lahlali, B.Badruzzaman, N.Hafizah, M.R. Nan⁷ kabi olimlarning ilmiy tadqiqotlarida ko'rib chiqilgan. Ta'lim jarayonida integrativ yondashuv muammolari V.N.Orlova, S.A.Larionova, V.V.Levchenko, H.H.Ssembatya⁸, chet tillarini o'qitishda integrativ yondashuv masalalari Z.S.Ukolova, M.A.Arhipenko, K.X.Gadoyev, N.V.Mokhamar, M.B.Evans⁹, yozuv

⁴ Axmetova L.P. Преимущество обучения письменной английской речи на продвинутом этапе языкового вуза: Автореф. дисс. ... канд. пед. наук. – Ташкент, 2011. – 25 с.; Алимов Ф.Ш. Инглиз тилида ёзув компетенциясини шакллантириш (нофилологик факультетлар мисолида): Пед. фан. фалс. док. ... дисс. – Тошкент, 2018. – 136 б.; Бегибаева Н.Ж. Совершенствование письменной речевой компетенции учителей школ с помощью онлайн ресурсов: Автореф. дисс. ... док. филос. пед. наук. – Ташкент, 2022. – 24 с.; Пулатова З.А. Модулли тизимда юридик йўналиш талабаларининг ёзув малакасини баҳолаш (B2 даражаси мисолида): Пед. фан. фалс. док. ... дисс. – Тошкент, 2022. – 196 б.; Akhmadjonov Kh.A. Improving methods of assessing writing in ESP classes:: Abs. diss. ... doc.philos.ped.scien. – Tashkent, 2022. – 46 p.

⁵ Юлбарсова Х.А. Интегратив ёндашув асосида бўлажак ўқитувчиларнинг коммуникатив компетентлигини шакллантириш технологияси: Пед. фан. фалс. док. ... дисс. – Наманган, 2019. – 140 б.; Гулямова М.Х. Инглиз тилини ўқитишда талабалар коммуникатив компетенциясини ривожлантиришга интегрativ ёндашув: Пед. фан. фалс. док. ... дисс. автореф. – Тошкент, 2019. – 35 б.; Mamedova M.A., Amonova M.M. An integrated approaches in teaching foreign language. Eurasian Journal of Humanities and Social Sciences. – № 20, 2023. – P. 43–45.; Jonuzokova K. Integrated approaches to teaching languages. Mental Enlightenment Scientific-Methodological Journal. – № 4(1), 2023. – P. 80–88.

⁶ Каплич Л.В. Начало обучения продуктивной письменной речи в лингвистическом вузе: Автореф. дисс. ... канд. пед. наук. – Москва, 1996. – 25 с.; Ибрагимов И.Дж. Обучение основам владения арабским языком: Дисс. ... канд. пед. наук. – Пятигорск, 2004. – 164 с.; Кудряшова О.В. Методика поэтапного формирования коммуникативной компетенции в письменной речи: Автореф. дис. ... канд. пед. наук. – Тамбов, 2005. – 28 с.; Мазунова Л.К. Система овладения культурной иноязычного письма в языковом вузе: Дисс. ... док. пед. наук. – Москва, 2005. – 353 с.; Креер М.Я. Критерии оценки иноязычной письменной речи учащихся на рубеже школа-вуз: на материале английского языка: Дисс. ... канд. пед. наук. – Санкт-Петербург, 2007. – 241 с.; Лапшова Н.К. Обучение культуре иноязычной письменной речи в начальной школе: Дисс. ... канд. пед. наук. – Нижний Новгород, 2010. – 214 с.

⁷ Lahlali E.M. How to write in Arabic. – Edinburgh: Edinburgh University Press, 2009. – 200p.; Badruzzaman B. تعليم مهارة الكتابة لغويين بالعربية. Jurnal Ilmiah didaktika. – № 14(1), 2013. – P. 128–142; Hafizah N. Disertasi diserahkan untuk memenuhi keperluan bagi uazah sarjana pengajian bahasa moden: Dis. ... ijaz. sarj. pen. bah. mod. – Kuala Lumpur, 2015. – 144 p.; Nan M.R., Mei S.Y. Learning Arabic writing skill at Ningxia University, China: Analysis study. European Journal of Social Sciences. – № 7(2), 2020. – P. 45–55.

⁸ Орлова В.Н. Интегративный подход к информационной подготовке студентов колледжа: Дисс. ... канд. пед. наук. – Нижний Новгород, 2006. – 178 с.; Ларионова С.А. Реализация интегративного подхода в системе обучения первоклассников грамоте: Дисс. ... канд. пед. наук. – Тамбов, 2009. – 226 с.; Левченко В.В. Интегрированный подход к профессионально-педагогической подготовке в вузе специалистов для образовательных учреждений: Дисс. ... канд. пед. наук. – Самара, 2009. – 183 с.; Ssembatya H.H. An analysis of the implementation of the integrated approach in a Luganda language classroom in Uganda: PhD thes. ... ed. – Port Elizabeth, 2017. – 245 p.

⁹ Уколова З.С. Интегративный подход к формированию коммуникативной компетенции студентов в профессионально-иноязычной подготовке: Дисс. ... канд. пед. наук. – Самара, 2006. – 208 с.; Архипенко М.А. Педагогическая интеграция как фактор повышения конкурентоспособности будущего специалиста в условиях обучения в высшей школе: на примере дисциплины “Иностранный язык”: Дисс. ... канд. пед. наук. – Орел, 2007. – 204 с.; Гадоев К.Х. Интегрированное обучение иностранному (английскому) языку в неязыковых вузах республики Таджикистан: Дисс. ... канд. пед. наук. – Душанбе, 2015. – 164 с.; Mokhamar N.W. The impact of integrating reading and writing skills on Palestine technical college students paragraph writing and attitudes: PhD

malakasini integrativ yondashuv asosida egallash J.Dikson, A.M.Alnuh, W.Aljahdali, F.Kitila¹⁰ kabi olimlarning ilmiy izlanishlarida tadqiq etilgan.

Bugungi kunga qadar olib borilgan ilmiy tadqiqot izlanishlarida oliy ta'limda talabalarning arab tilida yozuv malakasini shakllantirish masalalari bir qator soha olimlari tomonidan o'rganilgan bo'lsa-da, ammo ayni malakani integrativ yondashuv asosida shakllantirish muammosi maxsus tadqiq qilinmagani tadqiqot ishimizning mavzusini belgilashga asos bo'lib xizmat qildi.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasi ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Tadqiqot ishi O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti Arab tili tarjima nazariyasi va amaliyoti kafedrasida ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining "Arab tili tarjimashunosligi va tarjima didaktikasining nazariy-metodologik asoslarini tadqiq etish" mavzusidagi ustuvor yo'nalishi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi filologik oliy ta'lim muassasalarida talabalarning arab tilida yozuv malakasini integrativ yondashuv asosida shakllantirishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

yozuvning malaka darajasida o'qitishning mazmun-mohiyati hamda arab tilida ushbu malakani shakllantirishning lingvodidaktik xususiyatlarini tahlil qilish; chet tili ta'limida "integrativ yondashuv" va "ko'nikmalar integratsiyasi" tushunchalarining mazmun-mohiyatini o'rganish va arab tili yozuvini o'rgatishda integrativ yondashuv tatbiqining didaktik xususiyatlarini aniqlash;

talabalarga arab tilida yozuvni o'rgatish holatini amaldagi o'quv dasturi va adabiyotlari doirasida tahlil qilish hamda yozuv malakasini shakllantirishda mavjud bo'lgan xatolar tipologiyasini tasniflash;

arab tilida talabalarning yozuv malakasini integrativ yondashuv asosida shakllantirish algoritmini ishlab chiqish hamda ayni ta'limiy kontekst uchun samarali pedagogik modelni taklif qilish;

arab tilida yozuv malakasini integrativ yondashuv asosida shakllantirishga yo'naltirilgan mashqlar tizimini ishlab chiqish;

pedagogik tajriba-sinov ishining samaradorligini aniqlagan holda tadqiqot natijalari asosida metodik taklif va tavsiyalarni ishlab chiqish.

Tadqiqotning obyekti sifatida "Filologiya va tillarni o'qitish (arab tili)" ta'lim yo'nalishi 1-2-bosqich talabalari yozuv malakasini integrativ yondashuv asosida shakllantirish jarayoni tanlangan.

Tadqiqotning predmetini oliy ta'limda arab tilida quyi bosqich talabalarining yozuv malakasini shakllantirish jarayoniga integrativ yondashuvni tatbiq qilishning mazmuni, shakl va metodlari tashkil qiladi.

thes. ... ed. – Gaza, 2016. – 176 p.; Evans M.B. The integration of reading, writing, speaking and listening skills in the middle school social studies classroom: PhD thes. ... ed. – Utah, 2018. – 175 p.

¹⁰ Dixon J., Tuladhar S. Whole language: An integrated approach to reading and writing. – USA: Center for International Education, 1996. – 67 p.; Alnooh A.M. Investigating the impact of using an integrated approach to the teaching of writing skills amongst secondary students of English as a foreign language in Saudi Arabia: PhD thes. ... ed. – UK, 2015. – 433 p.; Aljahdali W., Alshakhi A. Exploring EFL writing teaching through the integrated skills approach: A case study in the Saudi Context. Journal of Language Teaching and Research. – № 12(5), 2021. – P. 800–809; Kitila F., Ali Sh., Bekele E. Effects of teaching writing through integrated skills on students' performance as compared to a non-integrated one: A case of grade eleven at Sekela secondary school. Journal of Language Teaching and Research. – № 14(1), 2023. – P. 215-223.

Tadqiqotning usullari sifatida nazariy (tahliliy-sintetik, qiyosiy-taqqoslash, analogiya, modellash), diagnostik (so'rovlar, test o'tkazish, kuzatish), prognostik (ekspert baholash, baholarni umimlashtirish), pedagogik tajriba-sinov va matematik statistika (ma'lumotlarni statistik qayta ishlash, natijalarni grafik tasvirlash va boshqalar)dan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

integrativ yondashuv asosida arab tilida yozuv malakasini shakllantirish uchun ishlab chiqilgan yetti bosqichli (YTQTTM) algoritmining metodik asoslari tayyor matnlar, audio/video topshiriqlar, mavzuga oid kontentlar, vazifalar zanjiri va muhokama elementlarini ketma-ket qo'llash orqali yozuv jarayonining muqaddima, tayyorlov, konstruksiya, tekshiruv va refleksiya bosqichlarining funksional-kognitiv komponentining metodik aksentuatsiyasi asosida takomillashtirilgan;

nutqiy faoliyat turlarining integratsiyasi asosida ishlab chiqilgan Ar-IYM modelining didaktik imkoniyatlari MALL texnologiyalariga asoslangan topshiriqlar, kognitiv-ijodiy faollikni rag'batlantiruvchi adaptiv-diaagnostik o'quv muhiti hamda yozuv malakasini baholovchi indikatorlar bilan metodik sinxronizatsiya asosida qo'llanilishi orqali aniqlangan;

yo'zuv malakasini shakllantirishga qaratilgan nutqiy va nutqiy bo'lmagan xatolar tipologiyasi asosida ishlab chiqilgan metodik yechimning samaradorligi "loyiha" pedagogik texnologiyasining hamkorlikda yozish, matn dekonstruksiyasi, 6-3-5 Brainwriting va erkin yozuv metodlari integratsiyasiga asoslangan diagnostik kuzatuv va tahlil usuli orqali aniqlangan;

arab tilida yozuv malakasini shakllantirishda o'ngdan chapga harakatlanish tamoyili, harakatlar bilan ma'no farqlanishi, morfologik tuzilmaning yuqori darajada murakkabligi va leksik birliklarning kontekstual ko'pma'noliligi kabi grafokognitiv o'ziga xosliklarni inobatga olgan holda tashkiliy, integrativ modellash, amaliy tatbiq hamda yakuniy tahlil va baholash bosqichlarini o'z ichiga olgan AYM funksional-blokli mexanizmi ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

"Filologiya va tillarni o'qitish (arab tili)" ta'lim yo'nalishi o'quv rejasidagi umumkasbiy fanlardan o'quv dasturlari va o'quv-metodik ta'minoti tahlil qilinib, quyi 1-bosqich talabalari uchun "Xorijiy sharq tili (arab tili)" fanidan "O'qish va yozish amaliyoti" nomli o'quv qo'llanma ishlab chiqilgan;

talabalarining arab tilida yozuv malakasini shakllantirishda asosiy nutq faoliyati turlarining sodda va murakkab integratsiyasidan foydalanish amaliyoti rivojlantirilgan;

integrativ yondashuv asosida quyi bosqich talabalarining yozuv malakasini shakllantirishning pedagogik modeli yaratilgan va samaradorligi asoslangan;

arab tilida talabalarining yozuv malakasini shakllantirishda mavjud bo'lgan nutqiy va nutqiy bo'lmagan xatolarni 1-bosqich talabalari uchun informativ, konstruktiv, produktiv, 2-bosqich talabalari uchun esa tayyorlov, nutq oldi va nutq mashqlari tizimi asosida bartaraf qilish uchun didaktik materiallar bazasi ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi unda qo'llanilgan yondashuvlar,

usullar va nazariy ma'lumotlarning ishonchli manbalardan olingani, keltirilgan tahlil va mulohazalar, tajriba-sinov ishlari samaradorligining matematik-statistik metodlar vositasida asoslangani, xulosalarning amaliyotga joriy etilgani hamda olingan natijalar vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlangani bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati “integrativ yondashuv” va “ko‘nikmalar integratsiyasi” terminlarining mazmun-mohiyati, arab tilida yozuv malakasining lingvodidaktik xususiyatlari, oliy ta’limda talabalarining kasbiy kompetensiyasi tuzilmasi va tarkibiy asoslarini izohlash, o‘rganilayotgan muammo bo‘yicha ilmiy-metodik tadqiqotlarni tahlil qilish asnosida integrativ yondashuv tatbiqining didaktik xususiyatlarini aniqlash, quyi bosqich talabalarining arab tilida yozuv malakasini o‘zlashtirishlariga qo‘yilgan malaka talablari hamda xorijiy va milliy standartlarning qiyosiy tahlili amalga oshirilgani bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati ta’lim tizimida talabalarining arab tilida yozuv malakasini shakllantirishda mavjud xatolar tipologiyasini aniqlash va ularni samarali bartaraf qilish metodlari, integrativ yondashuv asosida talabalarining arab tilida yozuv malakasini shakllantiruvchi pedagogik modeli, o‘quv jarayonini uzviy tarzda olib borish va ta’lim natijalarini aniqlashda uch bosqichli mashqlar tizimi, metodik va didaktik taklif hamda tavsiyalar bo‘yicha til ko‘nikmalarining sodda va murakkab integratsiyasini amaliy dars mashg‘ulotlarga joriy etish orqali materialni o‘zlashtirish samaradorligini oshirishda foydalanilgani bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Filologik oliy ta’limda talabalarining arab tilida yozuv malakasini integrativ yondashuv asosida shakllantirish yuzasidan olingan nazariy-metodologik va amaliy tavsiyalar asosida:

integrativ yondashuv asosida arab tilida yozuv malakasini shakllantirish uchun ishlab chiqilgan yetti bosqichli (YTQTTM) algoritmning metodik asoslari tayyor matnlar, audio/video topshiriqlar, mavzuga oid kontentlar, vazifalar zanjiri va muhokama elementlarini ketma-ket qo‘llash orqali yozuv jarayonining muqaddima, tayyorlov, konstruksiya, tekshiruv va refleksiya bosqichlarining funksional-kognitiv komponentining metodik aksentuatsiyasi asosida takomillashtirishga oid xulosalaridan O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va aloqa harbiy institutining 2020-2022-yillarda o‘tkazilgan “Erudit” shifrlı yopiq innovatsion loyihasi doirasida foydalanildi (O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligining 2024-yil 24-dekabrda 10/2629-son ma’lumotnomasi). Natijada oliy ta’limda talabalarining yozuv malakasini shakllantirish metodlari va unda yetti amaliy bosqichni to‘g‘ri qo‘llay olish algoritmini samarali ishlab chiqish tizimi bo‘yicha tavsiyalar mazkur dastur mazmunini boyitishga xizmat qilgan;

nutqiy faoliyat turlarining integratsiyasi asosida ishlab chiqilgan Ar-IYM modelining didaktik imkoniyatlari MALL texnologiyalariga asoslangan topshiriqlar, kognitiv-ijodiy faollikni rag‘batlantiruvchi adaptiv-diaagnostik o‘quv muhiti hamda yozuv malakasini baholovchi indikatorlar bilan metodik sinxronizatsiya asosida qo‘llanilishi orqali aniqlanganligiga oid ilmiy tavsiyalaridan “O‘zbekiston” teleradiokanali davlat muassasasi tarkibidagi “O‘zbekiston tarixi” telekanalida efirga uzatilgan “Manbalar so‘zlaganda” ko‘rsatuvi ssenariylarini

tayyorlashda keng foydalanilgan (“O‘zbekiston” teleradiokanali” DMning 2024-yil 26-dekabrda 01-44--562-son ma’lumotnomasi). Natijada, ko‘nikmalar integratsiyasi asosida tayyorlangan metodik tavsiyalar ommalashtirilgan;

yozuv malakasini shakllantirishga qaratilgan nutqiy va nutqiy bo‘lmagan xatolar tipologiyasi asosida ishlab chiqilgan metodik yechimning samaradorligi “loyiha” pedagogik texnologiyasining hamkorlikda yozish, matn dekonstruksiyasi, 6-3-5 Brainwriting va erkin yozuv metodlari integratsiyasiga asoslangan diagnostik kuzatuv va tahlil usuli orqali aniqlanganligiga doir xulosalaridan Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetida Yevropa ittifoqi tomonidan (Gumboldt universiteti, Germaniya) 2022–2025 yillarda “Erasmus+International KA107 Credit mobility Key action 1-Mobility for learners and staff – Higher education student and staff mobility” for learners and staff – Higher education student and staff mobility” mavzusidagi innovatsion loyihada keng foydalanilgan (Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetining 2025-yil 24-sentabrda № 01/4-4440-son ma’lumotnomasi). Natijada talabalarning yozuv malakasini shakllantirishda mavjud xatolarni bartaraf qilishda uch bosqichli mashqlar tizimidan ko‘nikmalar integratsiyasi asosida foydalanish bo‘yicha ishlab chiqilgan dastur mazmunini boyitishga xizmat qilgan;

arab tilida yozuv malakasini shakllantirishda o‘ngdan chapga harakatlanish tamoyili, harakatlar bilan ma’no farqlanishi, morfologik tuzilmaning yuqori darajada murakkabligi va leksik birliklarning kontekstual ko‘pma’niligi kabi grafokognitiv o‘ziga xosliklarni inobatga olgan holda tashkiliy, integrativ modellashtirish, amaliy tatbiq hamda yakuniy tahlil va baholash bosqichlarini o‘z ichiga olgan AYM funksional-blokli mexanizmi ishlab chiqilganligiga oid xulosalaridan Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetida 2022-2024-yillarda bajarilgan Axborot-qidiruv tizimlari (Google, Yandex, Google translate) uchun avtomatik ishlov berish vositasi – o‘zbek tilining morfoleksikoni va morfologik analizatori dasturiy vositasini yaratish mavzusidagi innovatsion loyihasi doirasida foydalanildi (Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetining 2025-yil 27-oktabrda № 04/1-5169-son ma’lumotnomasi). Natijada yaratilgan mexanizm dastur bo‘yicha qo‘yiladigan talablarni mazmunan boyitishga xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 3 ta xalqaro va 3 ta respublika ilmiy-amaliy konferensiyalarida muhokama qilingan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinishi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 15 ta ilmiy ish, shundan, 1 ta o‘quv qo‘llanma, O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi doktorlik dissertatsiyalarining asosiy ilmiy natijalarini chop etish uchun tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 8 ta maqola, jumladan, 6 ta respublika va 2 ta xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 160 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida tadqiqot mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, uning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga

mosligi ko'rsatilgan, muammoning o'rganilganlik darajasi bayon etilgan, tadqiqotning maqsad va vazifalari aniqlangan, metodlari tavsiflangan, tadqiqot obyekti, predmeti ko'rsatilgan, dissertatsiyaning ilmiy yangiligi, olingan natijalarning ishonchliligi, ilmiy-amaliy ahamiyati asoslab berilgan, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy etilganligi, aprobatsiyasi, nashr etilgan ishlar, dissertatsiyaning tuzilishi hamda hajmi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi **“Arab tilida yozuv malakasini shakllantirishda integrativ yondashuv tatbiqining nazariy asoslari”** deb nomlangan bo'lib, ushbu bobda arab tilida yozuv malakasini shakllantirishning lingvodidaktik tahlili, chet tili ta'limida integrativ yondashuvning mazmun-mohiyati va talabalarning yozuv malakasini integrativ yondashuv asosida shakllantirishning o'ziga xos xususiyatlari masalalari yoritilgan.

Tildagi har qanday nutqiy muloqot ikki, ya'ni og'zaki va yozma shaklda sodir bo'lib, ushbu nutq faoliyatining ikkala turlari ham ma'lumot yetkazish uchun xizmat qiladi. Binobarin, yozma nutq og'zaki nutq asosida rivojlanishiga qaramay, undan sintaktik jihatdan to'liq ekanligi bilan ajralib turadi. Bu borada O'.Hoshimov, I.Yoqubov, J.Jalolov, Z.I.Salisheva, F.Alimov, Y.M. Kolker, Z.Munir, L.V.Kaplich, M.Y.Kreyer, L.R.Zinder kabi tadqiqotchi olimlar tomonidan olib borilgan izlanishlar yozuvning ichki nutq asosida shakllanib, uning bir vaqtning o'zida ham produktiv, ham retseptiv jarayon ekanligi, shu bois yozma nutq o'ziga xos psixologik xususiyatlarga ega bo'lib, uni o'rganish uchun alohida tayyorgarlik zarur ekanligi ta'kidlangan. Qolaversa, arab tilida yozuv malakasi eng qiyin malakalardan biri hisoblanadi. Bunga bir qancha arab tiliga xos omillar sababdir. Masalan, birinchi jihat – bu arab orfografiyasi; ikkinchi jihat – talaffuz qilinadigan, lekin yozuvda ko'rinmaydigan unli harflar; uchinchi jihat esa boshqa tillarning tovush tizimida mavjud bo'lmagan arab fonemalari¹¹.

Ma'lumki, ona tilida ham, chet tilida ham yozuv malakasini o'rgatish kommunikativ kompetensiyani shakllantirish bilan bog'liq uchta asosiy lingvistik, psixologik va metodik komponentlardan iborat ekanligi nuqtayi nazaridan eng qiyin va dolzarb muammolardan biri sifatida ko'riladi. Birinchidan, *lingvistik komponent* – yozish ko'nikmalarining asosini til bilimi tashkil etadi: so'z boyligining chuqurligi va aniq so'zni tanlay olish; grammatika va sintaksis mahorat, jumladan gap tuzilishining xilma-xilligi; bog'lovchi vositalar va havolalarni tushunish; turli kontekstlarga mos uslub va registrlarni egallash kabilarni qamrab oladi¹². Ikkinchidan, *psixologik komponent*: rejalashtirish, tashkil etish va qayta ko'rib chiqish uchun ijro etuvchi funksiya ko'nikmalari; yozish jarayonida bir nechta g'oyalarni boshqarish uchun xotira hajmi; yozish jarayonini kuzatish uchun metakognitiv xabardorlik; qiyinchiliklarni yengib o'tish uchun o'zini boshqarish va motivatsiya; o'quvchilarni tushunish va ular bilan bog'lanish uchun emotsional intellekt; g'oyalarni yaratish va rivojlantirish uchun ijodiy fikrlash qobiliyati

¹¹ Sirajudeen A., Adebisi, A. Teaching Arabic as a second language in Nigeria // Procedia, Social and Behavioral Sciences. – № 66, 2012. – P. 128.

¹² Hayes J.R., Flower L.S. Identifying the organization of writing processes. L.W. Gregg, E.R. Steinberg (Eds.), Cognitive processes in writing. – Mahwah: Lawrence Erlbaum, 1980. – P. 3-30.; Grabe W., Kaplan R.B. Theory and practice of writing: An applied linguistic perspective. – New York: Longman, 1996. – 504 p.

kabilar¹³. Uchinchidan, *metodologik komponent*: aqliy hujum, reja tuzish va fikrlar xaritasini yaratish kabi yozuvdan oldingi strategiyalar; turli janrlar va maqsadlar uchun qoralama tayyorlash texnikalari; umumiy va mahalliy masalalarga qaratilgan qayta ko‘rib chiqish jarayonlari; ma’lumot to‘plash va baholash usullari; iqtibos keltirish va hujjatlashtirish amaliyoti; o‘z-o‘zini tahrirlash va tekshirish protokollari¹⁴. Bu komponentlar yozish jarayonida dinamik tarzda o‘zaro ta’sir qiladi.

Arab tilida esa “yozuv malakasi” مهارة الكتابة [maharatul kita:ba] atamasi bilan yuritilib, ikki xil sifatga ega ko‘nikmalardan tashkil topgan:

- 1) arab harflari va so‘zlarini yozish ko‘nikmalari;
- 2) arab grammatikasiga rioya qilib yozma ravishda matn tuzish ko‘nikmasi¹⁵.

Malayziyalik tadqiqotchi H.Kamarudinning fikricha, arab tilida yozuv malakasini o‘zlashtirishda to‘rt asosiy jarayon mavjud: (1) grafik tizim; (2) imlo; (3) grammatik jihatdan gaplarni to‘g‘ri yozish; (4) fikr va g‘oyalar yaratish¹⁶. Bundan tashqari, bir qator arabshunos olimlar arab tilida ham yozuv malakasini o‘rgatishda ikki turdagi malakani qayd qilishgan: (1) texnik malaka – harflarni shakllantirish va imloni o‘zlashtirish; (2) ijodiy malaka – fikrlar va his-tuyg‘ularni arab tilida to‘g‘ri, mantiqiy va tizimli ravishda ifodalash¹⁷. Xususan, A.G‘.Abdulla va A.H.Abdulla arab tilida yozma matn yaratish uchun talabalar quyidagi ko‘nikmalarga ega bo‘lishlari zarur ekanligini ta’kidlashgan: 1) harflarni to‘g‘ri biriktira olish, birikib yoziladigan va birikib yozilmaydigan harflarni ajrata olish; 2) maxraji (harfning chiqish joyi) va shakli yaqin harflarni ajrata bilish; 3) so‘zlarda yoziladigan, lekin talaffuz qilinmaydigan harflarni eslab qolish; 4) ta marbuta (ة) va ta maftuha (ت) larni farqlash; 5) husnixat; 6) tinish belgilarini to‘g‘ri qo‘llash; 7) hamzani so‘zdagi o‘rniga ko‘ra to‘g‘ri yozish; 8) grammatik tartibga rioya qilish¹⁸. Shunga ko‘ra, arab tilida yozuv malakasini samarali shakllantirishda ta’lim yondashuvlarining o‘ziga xos o‘rni mavjud, chunki maqbul yondashuvni tanlash yuqorida keltirilgan arab tilida yozuv malakasining murakkab tabiatini har tomonlama chuqur anglashda ham professor-o‘qituvchilar, ham talabalar uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

Amerikalik olim R.Oksford ichki, ya’ni ko‘nikmalar integratsiyasi asosidagi integrativ yondashuvni “til ko‘nikmalarini alohida o‘rgatish o‘rniga, bir-biri bilan bog‘liq holda o‘rgatish, ya’ni haqiqiy muloqot vaziyatlarida til qanday tabiiy ishlatilishini aks ettirish” deya ta’riflaydi¹⁹. Tadqiqotchi olimlar J.K.Richards va R.U.Shmidtning ta’kidlashicha, integrativ yondashuv “dars o‘qish va yozishni tinglash va gapirish bilan bog‘laydigan mashg‘ulotlarni o‘z ichiga olganidek, o‘qish,

¹³ Zimmerman B.J., Risemberg R. Becoming a self-regulated writer: A social cognitive perspective. *Contemporary Educational Psychology*. – № 22(1), 1997. – P. 73-101.; Graham S., Harris K.R. The role of self-regulation and transcription skills in writing and writing development. *Educational Psychologist*. – № 35(1), 2000. – P. 3-12.

¹⁴ Flower L., Hayes J.R. A cognitive process theory of writing. *College Composition and Communication*. – № 32(4), 1981. – P. 365-387.; Graham S., McKeown D., Kihara S., Harris K.R. A meta-analysis of writing instruction for students in the elementary grades. *Journal of Educational Psychology*. – № 104(4), 2012. – P. 879-896.

¹⁵ Badruzzaman B. تعليم مهارة الكتابة لغير ناطقين بالعربية. *Jurnal Ilmiah Didaktika*. – № 14(1), 2013. – P. 128.

¹⁶ Kamaruddin H. *Pedagogi bahasa*. – Petaling Jaya: Logman, 2002. – P. 28.

¹⁷ Fajriah F. Strategi pembelajaran maharah al-Kitabah pada tingkat ibtidaiyah. – *Pionir: Jurnal Pendidikan*. – № 6(2), 2017. – P. 34.

¹⁸ Abdullah A.G., Abdullah A.H. Menyusun buku ajar bahasa arab. – Padang: Akademia Permata, 2012. – P. 42.

¹⁹ Oxford R. Integrated skills in the ESL/EFL classroom. *ERIC Digest*. – № ED456670, 2001. – P. 5.

yozish, tinglash va gapirish kabi til ko'nikmalarini bir-biri bilan bog'liq holda o'qitish'ni anglatadi²⁰. Shu bilan birga, G.D.Braun, E.Xinkel, J.Merfi, V.Yeng, M.E.Snou kabi tadqiqotchi olimlar mazkur yondashuvni mazmunli til o'rgatish va o'rganish imkoniyatlarini taqdim etuvchi muhim ta'lim yondashuvlaridan biri sifatida e'tirof etishdi. Biz ham ushbu ta'riflarga tayangan holda o'z mualliflik ta'rifimizni ishlab chiqdik: "Integrativ yondashuv – til ko'nikmalarini yaxlit tarzda mazmunli kontekstlar orqali rivojlantirishga yo'naltiruvchi, shu bilan birga, tildan foydalanishning haqiqiy muloqot sharoitida autentik vazifalarga asosan tashkil etilishini qo'llab-quvvatlovchi ta'lim yondashuvidir".

Arab tilini o'qitish bo'yicha ko'p yillik tajribaga ega M.Al-Batal va R.K.Belnap AQSh oliy ta'limida mavjud bo'lgan arab tili dasturlarini o'rganib, integratsiyalashgan ko'nikmalarni o'qitish an'anaviy tarzda, ya'ni alohida yondashuvlarga nisbatan talabalarning umumiy malaka ko'rsatkichlarini sezilarli darajada yaxshilanishiga olib kelganini aniqlashdi²¹. Yana bir arab tili mutaxassisi M.Islim tomonidan o'tkazilgan oliy ta'lim arab tili dasturlari tadqiqoti shuni ko'rsatdiki, integratsiyalashgan ko'nikmalar kurslaridagi talabalar turli vaziyatlarda arab tilini ishlatishda yuqoriroq motivatsiya darajasi va ko'proq ishonchni qayd etishdi²².

Shuni alohida qayd etish joizki, yozuv hatto ona tilida so'zlashuvchilar, aniqrog'i, til egalari uchun ham o'zlashtirilishi juda qiyin va murakkab bo'lgan malaka hisoblanadi, bundan tashqari, talabalar boshqa ko'nikmalarga qaraganda yozuvga kamroq vaqt sarflashadi²³. Xususan, yozuv malakasini shakllantirishda integrativ yondashuvdan foydalanishda ikki asosiy omilga e'tibor qaratiladi: (1) ko'nikmalar ketma-ketligi va (2) autentik materiallardan foydalanish²⁴. Birinchi omilga ko'ra, tadqiqot ishimiz uchun ikki, uch va to'rt ko'nikma integratsiyasiga asoslangan ketma-ketliklar tartibidan foydalanish belgilandi:

- Ikkita ko'nikma integratsiyasi – الاستماع (tinglab tushunish) – الكتابة (yozuv);
- Uchta ko'nikma integratsiyasi – الاستماع (tinglab tushunish) – المحادثة (gapirish) – الكتابة (yozuv);
- To'rtta ko'nikma integratsiyasi – الاستماع (tinglab tushunish) – القراءة (o'qish) – المحادثة (gapirish) – الكتابة (yozuv).

Ikkinchi omilga ko'ra esa ko'nikmalar integratsiyasiga asoslangan yondashuvning asosiy komponentlarini ham inobatga olish zarur va ular ayni yondashuv asosidagi dars mashg'ulotlarining yo'l xaritasini tizimli shakllantirishda har tomonlama qo'l keladi.

²⁰ Richards J.C., Schmidt R.W. Longman dictionary of language teaching and applied linguistics. – London: Routledge. – 4th ed, 2011. – P. 289.

²¹ Al-Batal M., Belnap R.K. The teaching and learning of Arabic in the United States: Realities, needs, and future directions. K.Wahba, Z.A. Taha, L.England (Eds.), Handbook for Arabic Language Teaching Professionals in the 21st Century. – New York: Routledge. – 1st ed, 2006. – P. 1-12.


²² Isleem M. Developing attitudes toward learning Arabic as a foreign language among American university and college students. V.Aguilar, M.Á. Manzano, L.M.P. Cañada, W.Saleh, P.S. Grimm (Eds.) Arabic Language = وتعلمها والعربية اللغة تعليم : عربي ٢ – Murcia: Universidad de Murcia. Servicio de Publicaciones, 2014. – P. 81-98.

²³ Hedge T. Teaching and learning in the language classroom. – Oxford: Oxford University Press, 2000. – 464 p.

²⁴ Hajar A. Integrated skills approach (ISA) in writing class: A case study of Business English communication (BEC) students of Universitas Negeri Makassar. International Journal of Humanities and Innovation (IJHI). – № 5(4), 2022. – P. 135.

Shu o‘rinda arab tilida talabalarning yozuv malakasini integrativ yondashuv orqali shakllantirishda muayyan tamoyillarga amal qilish muhim ekanligiga to‘xtaladigan bo‘lsak, biz quyidagi tamoyillarni keltirib o‘tishimiz joiz: *kontekstual ta’lim tamoyili, mavzuga asoslanganlik tamoyili, loyihaga yo‘naltirilganlik tamoyili, autentik materiallarga bog‘liqlik tamoyili, topshiriqlar bilan mustahkamlanganlik tamoyili, funkcionallik tamoyili, arab yozuv madaniyatining o‘ziga xoslik tamoyili.*

Tadqiqotimizda pedagogik modelni muvaffaqiyatli tatbiq etish uchun tayyor matnlar, audio/video topshiriqlar, mavzularga oid kontentlar, vazifalar zanjiri va muhokama elementlaridan foydalandik. Har bir mavzu uchun quyi bosqich talabalari uchun yetti bosqichli algoritmi ishlab chiqildi va ularning amaliyotda qo‘llanilishi ko‘zda tutilgan (1-rasm).



1-rasm. Integrativ yondashuv asosida yozuv malakasini shakllantirishning yetti bosqichli algoritmi

Bundan tashqari, muvaffaqiyatli tarzda integrativ yondashuv tatbiqida talabalar e’tiboriga havola etiluvchi o‘quv materiallari, dars mashg‘ulotlari rejasi va alohida tayyorgarlik talab qiladigan topshiriqlar inkor etib bo‘lmaydigan dolzarb amaliy ahamiyat kasb etadi. Shu bois, B.Tomlinson o‘z ilmiy izlanishlarining natijalarida ko‘nikmalar integratsiyasi asosidagi dars mashg‘ulotlari uchun nisbatan ko‘proq turli xil o‘quv materiallariga ehtiyoj mavjud bo‘lishini ta’kidlagan²⁵.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi “**Talabalarning arab tilida yozuv malakasini integrativ yondashuv orqali shakllantirishning metodologik amaliyoti**” deb nomlangan bo‘lib, unda OTMlarining ta’lim yo‘nalishi 60230100 – Filologiya va tillarni o‘qitish (arab tili) yo‘nalishi bo‘yicha quyi bosqich (1- va 2-bosqich) talabalarining yozuv malakasini o‘rgatish holatini me’yoriy va huquqiy hujjatlar, jumladan, uzluksiz ta’lim tizimining chet tillar bo‘yicha davlat ta’lim

²⁵ Tomlinson B. Materials development in language teaching. – Cambridge: Cambridge University Press, 2011. – P. 87-90.

standarti (keyingi o‘rinlarda – DTS), malaka talablari, fan dasturlari, ishchi o‘quv dasturlari, darsliklari doirasida tahlil qilish hamda integrativ yondashuv asosida yozuv malakasini shakllantirish modelining tatbiqiga oid masalalar yoritilgan.


Til bilishning har bir darajasida yozuvni o‘rgatish mazmuni va unga qo‘yilgan talablar DTS hamda ta‘limning turli bosqichlariga qaratilgan chet tili dasturlarida qayd etilgan. DTSdagi nutq ko‘nikma va malakalarining deskriptorlari 2001-yilda joriy qilingan chet tillarni bilishning umumiyevropa tizimiga o‘zaro bog‘liq holda olingan. Biroq 2020-yilda nashr etilgan CEFRning yangi talqini, “CEFR Companion Volume”²⁶, til o‘rganish, o‘qitish va baholash uchun yanada kengroq va zamonaviyroq yondashuvlarni taqdim etdi. CEFRning mazkur talqinida til ko‘nikmalari va o‘quv maqsadlarini kengroq qamrab olish uchun ba‘zi o‘zgartirishlar va yangiliklar kiritilgan. Xususan, unda yozuv malakasiga qo‘yilgan talablarda ham ba‘zi o‘zgarishlar mavjud. Shu sababli, “Uzluksiz ta‘lim tizimining chet tillari bo‘yicha davlat ta‘lim standarti”ning yangi tahririni qabul qilish, undagi nutq ko‘nikma va malakalarining deskriptorlari 2020-yilda joriy etilgan chet tillarini bilishning umumiyevropa tizimiga mos ravishda berilishi zarur deb hisoblaymiz.

Oliy ta‘limda arab tili fanidan filologiya yo‘nalishdagi OTMlari uchun qo‘llanilayotgan o‘quv dasturlari va darsliklar asosan grammatika, leksik-grammatik tahlil va tarjimaga qaratilgan bo‘lib, bu an‘anaviy yondashuv zamonaviy talablarga to‘liq javob bermaydi. Grammatikani matn orqali tarjimasiz o‘rgatish samaraliroq bo‘lsa-da, amaldagi darsliklarda yozuv malakasiga oid mashqlar yetarli emas va dars mashg‘ulotlarida nutq faoliyati turlarining kombinatsiyasi to‘g‘ri tashkil etilmagan. Bu muammolarni hal qilish uchun tajriba-sinov davomida aniqlangan qiyinchiliklar va xatolarni chuqur tahlil qilish zarur.

Tajriba-sinov ishlari davomida talabalar tomonidan yo‘l qo‘yilgan xatolar ayni L.S.Potapovanning tasnifiga muvofiq bo‘lganligi sababli, uning asosida arab tilida yozuv malakasini shakllantirishda xatolar quyidagicha tasniflandi (2-rasm).

Talabalarning arab tilidagi yozma nutqidagi xatolar asosan ikki sababga ko‘ra kelib chiqadi: birinchisi, o‘zbek va arab tillari tizimidagi tafovut natijasida (tillararo interferensiya), ikkinchisi, arab tilidagi istisno holatlarning ko‘pligi va ayrim grammatik shakllarning o‘zbek tilida yo‘qligi. Arab tili somiy tillar oilasiga mansub bo‘lib, o‘ziga xos xususiyati shundaki, so‘z o‘zaklari asosan undosh tovushlardan tashkil topadi va undan turli unli va affikslar yordamida yangi so‘zlar yasaladi. Bu muammolarni hal qilish uchun arab tilida yozuv malakasini shakllantirishning pedagogik modelini va maxsus mashqlar tizimini ishlab chiqish taklif etildi.

²⁶ Common European framework of reference for languages: Learning, teaching, assessment – Companion volume. – Strasbourg: Council of Europe Publishing, 2018. – 230 p.




2-rasm. Yozuvdagi xatolar tasnifi

Biz tomonimizdan talabalarning yozuv malakasini shakllantirish uchun ishlab chiqilgan model to'rt blokdan (maqsadli, metodologik, texnologik, baholash-natijaviy) iborat (3-rasm).


Modelning maqsadi arab tilida talabalarning yozuv malakasini integrativ yondashuv asosida shakllantirishdan iboratdir.

Biz tajriba-sinov ishlari davomida *hamkorlikda yozish, o'zaro diktant, matnlarni dekonstruksiya qilish, klaster, 6-3-5 Brainwriting* (635 Metodi) va *erkin yozuv* metodlaridan foydalandik.

Ilmiy ishimizning asosini tashkil etuvchi yozuv malakasini integrativ yondashuv asosida o'qitishda yuqorida keltirilgan texnologiya va metodlar yordamida ishlab chiqilgan mashqlar tizimi tadqiqotimizning samaradorligini ta'minlashda muhim rol o'ynaydi. Bu tizim ikki bosqichli bo'lib, 1-bosqich talabalari uchun *informativ, konstruktiv* va *reproduktiv* mashqlar, 2-bosqich talabalari uchun esa *tayyorlov, nutq oldi* va *nutq* mashqlari taklif etildi. Bunda 1-bosqich uchun N.D.Galskova, M.Y.Kaskova va L.N.Frolovalarning, 2-bosqich uchun esa Z.Munirning mashqlar tizimidan foydalanildi (4-rasm).



3-rasm. Arab tilida talabalarining yozuv malakasini integrativ yondashuv asosida shakllantirishning pedagogik modeli




4-rasm. Talabalarning arab tilida yozuv malakasini integrativ yondashuv asosida shakllantirish uchun mashqlar tasnifi

1-bosqichdagi mashqlar tizimi yozuv texnikasini o‘zlashtirish hamda arab tilida so‘z-gap-matn tamoyilini rivojlantirishga yo‘naltirilgan. Talabalarning til o‘rganishning boshlang‘ich bosqichida ekanliklarini inobatga olgan holda, ularning arab tilida yozuv malakasini shakllantirishda sodda integrativ yondashuvga tayanildi. Sodda integratsiya yozuvni har bir nutq faoliyati bilan alohida bog‘lab, ma‘lumotlarni oson va chuqurroq o‘zlashtirishga yordam beradi. Boshlang‘ich daraja uchun sodda integratsiya, ya‘ni yozuvni bir yoki ikki nutq faoliyati bilan birlashtirish yanada samaraliroq natija beradi.

2-bosqichda talabalarda arab tilida insho yozish ko‘nikmalari shakllantiriladi. Shunga ko‘ra, arab tilida talabalarning yozuv malakasini shakllantirishda sodda va murakkab integrativ yondashuv qo‘llaniladi. Murakkab integratsiya yozuvni ikkidan ortiq nutq faoliyati bilan birlashtirish orqali talabalarda yanada kengroq bilim va ko‘nikmalarni rivojlantirishga yordam beradi. Bu yondashuv yordamida talabalar yozuvni real vaziyatlarda qo‘llashni o‘rganadilar.

